**O‘ZBEKISTON OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent Moliya instituti**

**A.S Sotivoldiyev, B.O.Bolibekov**

# Buxgalteriya hisobi nazariyasi

fanidan masalalar to‘plami

**Toshkent**
**“IQTISOD-MOLIYa”**
**2007**

**Sotivoldiev A.S., Bolibekov B.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan masalalar to‘plami.–T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2007, 64 bet.**

Mazkur mashg‘ulotlar to‘plami “O‘zdonmahsulot” tizimidagi “G‘alla – Alteg” ochiq aksionerlik jamiyati (OAJ) materiallari asosida yozilgan bo‘lib, “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” kursining dasturiga mos keladi va u “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” va boshqa ixtisosliklar bo‘yicha bilim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Ishning taqdim etilgan strukturasi “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” kursini nazariy va amaliy materiallari o‘zaro aloqasini tushunish imkoniyatini beradi.

Buxgalteriya hisobining nazariyasi bo‘yicha mashg‘ulotlar to‘plami ushbu kursning asosiy mavzularini qamrab olgan. O‘tilgan materiallarni o‘zlashtirish maqsadida har bir mavzu bo‘yicha testlar keltirilgan. Mavzular bo‘yicha testlarning mavjudligi talabalar bilimini joriy va oraliq nazorat qilishni ta’minlaydi.

Masalalar to‘plami Toshkent Moliya instituti Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2007 yil 25 avgust 3-sonli majlis bayoni)

**Taqrizchilar:** i.f.n., dos. B.K.Hamdamov;
i.f.n., dos. S.U.Mehmonov

**©“IQTISOD-MOLIYa”, 2007**

# Kirish

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mukammal shakllanib borishi alohida yo‘nalish va ko‘rinishga ega bo‘lgan hisob tizimini yuzaga chiqardi. Bu hisob tizimida asosiy bo‘g‘in buxgalteriya hisobi hisoblanadi. Bizning Milliy iqtisodiyotimizda ham uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda bu fan tayanib ish ko‘radigan hujjat va ma’lumotlarni oldindan tajribada sinash orqali malaka hosil qilish muhim hisoblanadi.

Shu ma’noda mazkur mashg‘ulotlar to‘plami “O‘zdonmahsulot” tizimidagi “G‘alla – Alteg” ochiq akцionerlik jamiyati (OAJ) materiallari asosida yozilgan va “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” kursining dasturiga mos keladi.“Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” va boshqa ixtisosliklar bo‘yicha bilim olayotgan talabalarga kelgusi faoliyati mohiyatini chuqurroq anglashida qo‘l keladi.

Ishning taqdim etilgan strukturasi “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” kursini nazariy va amaliy materiallari o‘zaro aloqasini tushunish imkoniyatini beradi.

Buxgalteriya hisobining nazariyasi bo‘yicha mashg‘ulotlar to‘plami ushbu kursning asosiy mavzularini qamrab olgan. O‘tilgan materiallarni o‘zlashtirish maqsadida har bir mavzu bo‘yicha testlar keltirilgan. Mavzular bo‘yicha testlarning mavjudligi talabalar bilimini joriy va oraliq nazorat qilishni ta’minlaydi.

**1 - mashg‘ulot**

## Mavzu: Buxgalteriya hisobining predmeti va metodi.
## Seminar

Mazkur mavzu bo‘yicha quyidagi savollarni ko‘rib chiqish tavsiya qilinadi:

1. Xo‘jalik hisobini kelib chiqish sabablari va rivojlanishi.
2. Xo‘jalik hisobining yagonaligi va uning uch xil turlari.
3. Hisobning iqtisodiy mohiyati va uning boshqarish tizimidagi o‘rni.
4. Buxgalteriya hisobining ahamiyati va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida uning oldiga qo‘yilgan talablar.

Adabiyotlar.


1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi qonuni. I996 - yil 30 - avgust.
2. Buxgalteriya hisobining BXMS № 0I.
3. Пачоли Л. Трактат о счётах и записах. М. I994.
4. Макаров В.С Теория бухгалтерского ичёта М.I974.
5. Xoshimov B.A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2004.

## 2 - mashg'ulot

# Mavzu: Xo'jalik mablag'lari tasnifi

"G'alla – Alteg" OAJ ning 200_ - yil 1-yanvargacha bo'lgan xo'jalik mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlar.

**1 - jadval.**

| Xo'jalik mablag'larining turlari | Summa | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| 1. Neft mahsulotlari | 100.000 | |
| 2. Stanoklar | 300.000 | |
| 3. Hisob-kitob schyotida turgan pul | 950.000 | |
| 4. Кassadagi naqd pul | 50.000 | |
| 5. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari | 150.000 | |
| 6. Hisobdor shaxclarga berilgan bo'nak summasi | 20.000 | |
| 7. Idora binolari | 1.200.000 | |
| 8. Qurilish materiallari | 300.000 | |
| 9. Idish va idish materiallari | 150.000 | |
| 10. Foyda hisobidan budjetga hisoblangan daromad solig'i | | |
| 11. Inventar va xo'jalik jihozlari | 350.000 | |
| 12. Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablag'lari | 180.000 | |
| 13. Sotilgan mahsulot uchun olinadigan summa | 320.000 | |
| 14. Idoradagi mebel va ofis jihozlari | 500.000 | |
| 15. Xomashyo va materiallar | 800.000 | |
| 16. Кo'mir, o'tin | 250.000 | |
| 17. Yuk avtomobillari | 50.000 | |
| 18. Garaj binolari | 2.500.000 | |
| 19. Debitor qarzlar | 500.000 | |
| 20. Bolalar bog'chasi binolari | 250.000 | |
| 21. Sport anjomlari | 1.100.000 | |
| 22. Yengil xizmat mashinalari | 300.000 | |
| 23. Turar joy binolari | 2.300.000 | |
| 24. Ta'mirlash ustaxonasidagi tokarlik stanoklari | 950.000 | |
| 25. Кutubxona kitoblari | 350.000 | |
| 26. O'rnatiladigan milliy asbob-uskunalar | 650.000 | |
| 27. Asosiy vositalarni xarid qilish xarajatlari | 800.000 | |
| 28. Ombordagi tayyor mahsulotlar | 850.000 | |
| 29. Ombordagi sotiladigan tovarlar | 400.000 | |
| 30. TMZ lar uchun mol etkazib beruvchilarga berilgan bo'naklar | 200.000<br>300.000 | |
| JAMI | | |

Topshiriqni bajarish uchun metodik koʻrsatma

1. I-jadvalning 3 - xonasi (izoh)ga ushbu jadvalda keltirilgan har bir mablagʻ roʻparasiga qaysi sohaga (ishlab chiqarish, muomala, noishlab chiqarish, chetlashtirilgan) tegishli ekanini yozib qoʻying.
2. Shundan soʻng quyidagi 2 - jadvalga alohida mablagʻlar guruhlari koʻchirib yozilib, jami chiqarilsin.

Xoʻjalik mablagʻlarini tasniflash.

**2 - jadval.**

| **Guruh nomlari va ularga yoziladigan mablagʻ turlari** | **Summa** |
|---|---|
| **I. Ishlab chiqarish sohasidagi mablagʻlar**<br>**1.1 Mehnat vositalari.**<br>**Stanoklar va hokazolar.** | **300.000** |
| **Mehnat vositalari jami** | **?** |
| **1.2 Mehnat buyumlari:**<br>**Neft mahsulotlari va hokazolar.** | **100.000** |
| **Mehnat buyumlari jami:** | **?** |
| **II. Muomaladagi mablagʻlar**<br>**2.1 muomala buyumlari:**<br>**…………………………..**<br>**…………………………..** | |
| **Muomala buyumlarining jami** | **?** |
| **2.2 Pul mablagʻlari:**<br>**…………………………..**<br>**…………………………..** | |
| **Pul mablagʻlarining jami:** | **?** |
| **Guruh nomerlari va ularga yoziladigan mablagʻ turlari** | **Summa** |
| **2.3. Hisoblashishdagi mablagʻlar:**<br>**………………………….**<br>**………………………….** | |
| **Hisoblashishdagi mablagʻlar, jami** | **?** |
| **III. Ishlab chiqarish sohasidagi mablagʻlar**<br>**........................................**<br>**………………………….** | |
| **Ishlab chiqarish sohasidagi mablagʻlar, jami** | **?** |
| **IV. Chetlashtirilgan mablagʻlar** | |
| **OAJ boʻyicha mablagʻlar, jami** | **?** |

**3-mashg‘ulot**

## Mavzu: Xo‘jalik mablag‘larini tasniflash

“G‘alla – Alteg” OAJ ning 200_ yil 1-yanvarga bo‘lgan xo‘jalik mablag‘larining manbalari to‘g‘risidagi ma’lumot.

**1 - jadval.**

| **Xo‘jalik mablag‘larining manbalari** | **Summa** | **Izoh** |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| **1. Asosiy vositalarning eskirishi** | **1.600.000** | |
| **2. Mehnat haqi bo‘yicha qarz** | **400.000** | |
| **3. Ta’mirlash fondiga ajratma** | **300.000** | |
| **4. Ijtimoiy sug‘urta organlaridan qarz** | **250.000** | |
| **5. Bankning qisqa muddatli ssudasi** | **350.000** | |
| **6. Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz** | **600.000** | |
| **7. Boshqa kreditorlardan qarz** | **800.000** | |
| **8. Ustav kapitali** | **10.120.000** | |
| **9. Xizmat safari bo‘yicha hisobdor shaxslarga qarz** | **150.000** | |
| **10.Bajarilgan ishlar bo‘yicha pudratchilarga to‘lashga tegishli summa** | **550.000** | |
| **11. Olingan ehtiyot qismlar uchun mol yuboruvchilardan bo‘lgan qarz** | **150.000** | |
| **12. Qo‘shilgan kapital** | **180.000** | |
| **13. To‘lanadigan dividend summasi** | **550.000** | |
| **14. Taqsimlanmagan foyda** | **770.000** | |
| **15. Sotiladigan mahsulotlar uchun oldindan olingan bo‘nak summasi** | **350.000** | |
| **JAMI** | | |

Topshiriqni bajarish uchun metodik ko‘rsatma

1. I-jadvalning birinchi xonasida keltirilgan manbalar ro‘parasiga har biri qaysi manbalar guruhi (o‘z mablag‘lar manbai, chetdan jalb qilingan mablag‘lar manbai va foyda) ga tegishli ekanini yozib qo‘ying.

**2.** Shundan so‘ng quyidagi 2 - jadvalga alohida manbalar guruhlari bo‘yicha yozib jamlarini chiqaring.

**2 - jadval**

Xo‘jalik mablag‘lari manbalarining tasnifi

| Guruh nomlari va ularga yoziladigan manba turlari | Summa |
|---|---|
| **I. O‘z mablag‘lar manbai (xusisiy kapital)**<br>**1.1. Кapital:**<br>**……………………………**<br>**……………………………** | |
| **Кapital bo‘yicha jami** | **?** |
| **1.2. Rezervlar:**<br>**……………………………** | |
| **Rezervlar bo‘yicha jami** | **?** |
| **II. Chetdan jalb qilingan mablag‘lar manbai (majburiyatlar)**<br>**2.1. Bank kreditlari**<br>**…………………………...**<br>**2.2. Кreditor qarzlar:**<br>**……………………………**<br>**……………………………** | |
| **Кreditor qarzlar jami** | **?** |
| **2.3. Mol yuboruvchi va pudratchilardan qarz**<br>**……………………………**<br>**……………………………** | |
| **Mol yuboruvchi va pudratchilardan qarzning jami** | **?** |
| **III. Foyda va hisoblangan eskirish**<br>**3.1.**<br>**3.2.** | |
| **Foyda va hisoblangan eskirish jami** | **?** |
| **Xo‘jalik mablag‘lari manbalarining jami** | **?** |

## 1 - mavzu: Mablag‘ va manbalar tasnifi bo‘yicha testlar

**1. Foydalanish davri bo‘yicha aktivlar quyidagicha:**
a) buyumlashtirilgan;
b) joriy;
c) uzoq muddatli;
d) qisqa muddatli.

**2. Qaytarish muddatiga qarab majburiyatlar quyidagilarga bo‘linadi:**
a) uzoq muddatli majburiyatlar;
b) xususiy kapital;
c) qisqa muddatli majburiyatlar;
d) joriy.

**3. Uzoq muddatli aktivlarga quyidagilarga kiradi:**
a) asosiy materiallar;
b) asosiy vositalar;
c) inventar va xo‘jalik jihozlari;
d) hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari;
e) nomoddiy aktivlar;
f) uzoq muddatli qo‘yilmalar.

**4. Joriy aktivlarga quyidagilar kiradi:**
a) asosiy vositalar;
b) asosiy materiallar;
c) nomoddiy aktivlar;
d) aksiyalar;
e) tayyor mahsulotlar;
f) debitorlik qarzlar.

**5. Ishlab chiqarish sferasidagi joriy aktivlarga kiradi:**
a) asosiy vositalar;
b) yoqilg‘i;
c) tugallanmagan ishlab chiqarish;
d) kassadagi pul;
e) xomashyo va materiallar.

**6. Muomala sferasidagi joriy aktivlarga kiradi:**
a) asosiy vositalar;
b) tayyor mahsulot;
c) tugallanmagan ishlab chiqarish;
d) pul mablag‘lari;
e) hisobdor shaxslar qarzi.

**7. Asosiy vositalar quyidagi guruhga kiradi:**
a) hisoblashishdagi mablag‘lar;
b) mehnat buyumlari;
c) mehnat vositalari;
d) o‘z manbalari.

**8. Tashkilot aktivlari tashkil bo‘lish manbalariga qarab bo‘linadi:**
a) qarzga va sotib olingan;
b) berkitilgan va qarzga olingan;
c) berkitilgan va maxsus tayinlangan;
d) o‘z va qarzga olingan.

**9. Ichki yalpi mahsulotni taqsimlash bo‘yicha majburiyatlar – bu:**
a) ijtimoiy organlar oldidagi qarz;
b) mol yuboruvchilardan qarz;
c) tashkilot xodimlaridan qarz;
d) ssuda bo‘yicha bankdan qarz.

**10. Hisoblashishlar bo‘yicha majburiyatlar – bu:**
a) ish haqi bo‘yicha xodimlardan qarz;
b) ssuda bo‘yicha bankdan qarz
c) mol yuboruvchilardan qarz;
d) maxsus tayinlangan mablag‘lar;
e) olingan avanslar.

## 4 - mashg‘ulot

## Mavzu: Buxgalteriya balansi

Inventarizasiya ro‘yxati ma’lumotlari bo‘yicha 200_ - yil 1 - yanvarga “G‘alla - Alteg” OAJ ning sintetik schyotlarida quyidagi qoldiqlar mavjud.

1-jadval.

| **Xo‘jalik mablag‘lari va manbalari** | **Summa** | **Izoh** |
|---|---|---|
| **1. Binolar** | **4.400.000** | |
| **2. Binolarning eskirishi** | **500.000** | |
| **3. Stanoklar** | **650.000** | |
| **4. Bankning qisqa muddatli krediti** | **350.000** | |
| **5. Transport vositalari** | **4.800.000** | |
| **6. Mehnat haqidan qarz** | **400.000** | |
| **7. O‘rnatiladigan asbob-uskunalar** | **800.000** | |
| **8. Byudjetga qarz** | **600.000** | |
| **9. Mebel va ofis jihozlari** | **800.000** | |
| **10. Ijtimoiy organlardan qarz** | **250.000** | |
| **11. Asosiy vositalarni xarid qilish** | **850.000** | |
| **12. Stanoklarning eskirishi** | **250.000** | |
| **13. Transport vositalarining eskirishi** | **850.000** | |
| **14. Yoqilg‘ilar** | **150.000** | |
| **15. Tugallanmagan ishlab chiqarish** | **150.000** | |
| **16. Boshqa kreditorlar** | **800.000** | |
| **17. Qurilish materiallari** | **300.000** | |
| **18. Inventar va xo‘jalik jihozlari** | **180.000** | |
| **19. Xom ashyo va materiallar** | **250.000** | |
| **20. To‘lanadigan dividentlar** | **550.000** | |
| **21. Ombordagi tayyor mahsulot** | **400.000** | |
| **22. Oldindan olingan bo‘nak** | **350.000** | |
| **23. Idish va idish materiallari** | **150.000** | |
| **24. Ombordagi sotiladigan tovarlar** | **200.000** | |
| **25. Mol yuboruvchi va pudratchilardan qarz** | **700.000** | |
| **26. Hisob-kitob schyotidagi pul** | **950.000** | |
| **27. Ustav kapitali** | **10.120.000** | |
| **28. Кassa** | **50.000** | |
| **29. Qo‘shilgan kapital** | **180.000** | |
| **30. Akkreditivlar** | **320.000** | |
| **31. Taqsimlanmagan foyda** | **770.000** | |
| **32. Hisobdor shaxslarga berilgan bo‘nak** | **20.000** | |
| **33. Xodimlarning xizmat safaridan qarzi** | **150.000** | |
| **34. Sotilgan mahsulot uchun xaridorlardan olinadigan summa** | **500.000** | |
| **35. Ta’mirlash fondiga ajratma** | **300.000** | |
| **36. Debitor qarzlar.** | **250.000** | |
| **37. Mol etkazib beruvchilarga berilgan bo‘nak** | **300.000** | |
| **38. Boshqa asosiy vositalar (sport anjomlari)** | **300.000** | |

Mashg‘ulotni bajarish bo‘yicha metodik ko‘rsatma

1. Birinchi jadvalning oxirgi “Izoh” xonasiga ushbu jadvalda ko‘rsatilgan har bir ma’lumot bo‘yicha “aktiv” yoki “passiv” so‘zi yozilsin.

2. Shundan so‘ng quyida keltirilgan 2 - jadval balans tegishli bo‘limlari bo‘yicha tuzilib, jamlari chiqarilsin.

2 - jadval

**“G‘alla - Alteg” OAJ ning 1 - yanvar 200_ - yil balansi**

**Aktiv** **Passiv**

| **Balans moddalari** | **Summa** | **Balans moddalari** | **Summa** |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Jami** | | **Jami** | |

## 5 - mashg‘ulot

## Mavzu: Xo‘jalik muomalalari ta’sirida balansdagi o‘zgarishlarni aks ettiring.

Ushbu mavzuni o‘zlashtirish maqsadida “G‘alla-Alteg” OAJning 200_yil 1-yanvarga bo‘lgan qisqartirilgan balansini keltiramiz.

1 - jadval

**Aktiv** **Passiv**

| **Balans moddalari** | **Summa** | **Balans moddalari** | **Summa** |
|---|---|---|---|
| **1. Asosiy vositalar** | **2.030.000** | **1. Ustav kapitali** | **1.400.000** |
| **2. Tayyor mahsulot** | **400.000** | **2. Taqsimlanmagan foyda** | **300.000** |
| **3. Qurilish materiallari** | **300.000** | **3.Bankning qisqa muddatli krediti** | **350.000** |
| **4. Кassa** | **50.000** | **4. Mehnatga haq to‘lash** | **400.000** |
| **5. Bankdagi hisob-kitob schyoti** | **950.000** | **5. Mol yuboruvchilar bilan hisob-kitob** | **700.000** |
| **6. Hisobdor shaxslar** | **20.000** | **6. Budjet bilan hisoblashish** | **600.000** |
| **Jami** | **3.750.000** | **Jami** | **3.750.000** |

Yanvar oyida quyidagi muomalalar sodir bo‘lgan.

**2 – jadval**

| Xo‘jalik muomalalarining mazmuni | Summa | Muoma-la turlari |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| <u>2- yanvar kuni sodir bo‘lgan muomalalar</u> | | |
| 1. Xodimlarga ish haqi berish uchun kassaga naqd pul keltirildi.<br>2. Foydaning bir qismi ustav kapitaliga qo‘shildi.<br>3. Bankdan qisqa muddatli kredit olinib hisob-kitob schyotiga o‘tkazildi. | 170.000<br>180.000<br>250.000 | |
| 4. Xodimlarga kassadan ish haqi berildi. | 160.000 | |
| 3 - yanvar kuni sodir bo‘lgan muomalalar. | | |
| 1. Safar xarajatlari uchun hisobdor shaxs Mansurovga kassadan naqd pul berildi.<br>2. Mol yuboruvchilardan qurilish materiallari qabul qilindi, lekin puli to‘lanmadi.<br>3. Hisob-kitob schyotidan bankning qisqa muddatli krediti to‘landi.<br>4. Bank krediti hisobidan budjetga soliq summasi o‘tkazib berildi. | 250.000<br>60.000<br>250.000<br>270.000 | |

Topshiriqni bajarish uchun metodik ko‘rsatma.

1) 2 - jadvalning 3 - xonasida har bir xo‘jalik muomalasi balansning nechanchi xil o‘zgarishiga kirishi ko‘rsatilsin.

2) Masalani echish uchun quyidagi shaklda 3 - jadval tuzilsin.

**3 – jadval.**

| Balans moddalari | 1- yanvarga qoldiq | 2 -yanvar kuniga o‘zgarish | 3 - yanvar kuniga o‘zgarish | 4 - yanvarga qoldiq |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| <u>Aktiv</u><br>1. Asosiy vositalar<br>2. Tayyor mahsulot<br>3. Qurilish materiallari<br>4. Kassa<br>5. Hisob-kitob schyoti<br>6. Hisobdor shaxslar | | | | |
| Jami | | | | |

| Balans moddalari | 1-yanvarga qoldiq | 2-yanvar kuniga o‘zgarish | 3-yanvar kuniga o‘zgarish | 4-yanvarga qoldiq |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| **<u>Passiv</u>**<br>**1. Ustav kapitali**<br>**2. Bank krediti**<br>**3. Mehnatga haq to‘lash**<br>**4. Mol yuboruvchilar bilan hisoblashish**<br>**5. Taqsimlanmagan foyda** | | | | |
| **JAMI** | | | | |

**3).** 3-jadvalning 2-xonasiga 1-yanvarga qoldiqni ko‘rsating, 3-xonasiga 2-jadvalda keltirilgan 2-yanvar kuni sodir bo‘lgan to‘rtta xo‘jalik muomalalarining summalari tegishli balans moddalari bo‘yicha (qo‘shuv (+), ayiruv (-) alomati qo‘yilib) aks ettirilsin. So‘ngra 3-jadvalning 4-xonasiga 2-jadvalda keltirilgan 3-yanvar kuni sodir bo‘lgan 4 ta xo‘jalik muomalalarining summalari tegishli balans moddalari bo‘yicha (qo‘shuv (+), ayiruv (-) alomati qo‘yilib) aks ettirilsin va 5-xonaga 4-yanvarga qolgan qoldiq yozilsin.

TEST

## Mavzu: Buxgalteriya balansi bo‘yicha test savollari

**1. To‘g‘ri javobni ko‘rsating.**

a) interval (oraliq);

b)bir vaqtli (momentli);

s) interval va vaqtli (momentli);

d) sintetik.

**2. Kirish balansi nimaga tuziladi?**

a) xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish uchun;

b) yil oxirida natijani jamlash uchun;

s) yuridik shaxs sifatida uning qaramog‘iga ajratilgan xo‘jalik mablag‘larni aks ettirish uchun;

d) xo‘jalikni tugatilishda.

**3. Sotilgan mahsulot uchun pul hisob – kitob schyotiga tushsa, qaysi tur o‘zgarishi bo‘ladi?**

a) 1 - tur    c) 3 - tur    b) 2 - tur    d) 4 - tur.

**4. Кassadan ish haqi berilsa, qaysi tip o‘zgarishi hosil bo‘ladi?**

a) 1 - tip; c) 3 - tip;
b) 2 - tip; d) 4 - tip.

5. **Bankdan olingan qisqa muddatli kredit mol yuboruvchilar schyotiga o‘tkazilsa, qaysi tip o‘zgarishi hosil bo‘ladi?**

a) 1 - tip; b) 2 - tip; c) 3 - tip; d) 4 - tip.

**6. Mol yuboruvchilardan materiallar olindi, lekin puli to‘lan-madi. Qaysi tip o‘zgarishi bo‘ladi?**

a) 1 - tip; b) 2 - tip; c) 3 - tip; d) 4 - tip.

**7. Likvidasiya balansi nima maqsadda tuziladi?**

a) yillik ish faoliyatning natijasini bilish uchun;
b) xo‘jalikni yillik faoliyati rejalashtirish uchun;
c) tashkilotni tugatish vaqtidagi xo‘jalik mablag‘larini baholash uchun;
d) hozirgi sharoitda tuzilmaydi.

**8. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar amortizasiyasi ko‘rsatil-magan balansni qanday balans deydi?**

a) xotima;
b) “brutto”;
c) netto;
d) provizor.

**9. 1 - tip xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lsa, balansning jami o‘zgaradimi?**

a) o‘zgarmaydi;
b) aktiv ko‘payadi;
c) passiv ko‘payadi;
d) aktiv va passiv ko‘payadi.

**10. Mol yuboruvchilarga berilgan avans – bu:**

a) debitor qarz ;
b) kreditor qarz;
c) qisqa muddatli kredit.

## 6 - mashg‘ulot

### 3 - mavzu: Schyotlar va ikkiyoqlamali yozuv.

“G‘alla – Alteg” OAJ ning 200 _ - yil I – fevralga bo‘lgan balansi.

**Aktiv** **Passiv**

| Schyot № | Schyotlar nomi | Summa | Schyot № | Schyotlar nomi | Summa |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| | I. Uzoq muddatli aktivlar | | | I. Xususiy kapital | |
| 0120 | | 4.400.000 | 8310 | | 10.120.000 |
| 0130 | | 650.000 | 8410 | | 180.000 |
| 0160 | | 4.800.000 | 8710 | | 770.000 |
| 0710 | | 800.000 | 8910 | | 300.000 |
| 0820 | | 850.000 | I. Bo‘lim jami<br>II. Majburiyatlar | | |
| 0140 | | 800.000 | 6810 | | 350.000 |
| 0190 | | 300.000 | 6710 | | 400.000 |
| | II. Bo‘lim jami<br>II. Joriy aktivlar | | 6410 | | 600.000 |
| | | | 6520 | | 250.000 |
| 1030 | | 150.000 | 6610 | | 550.000 |
| 2010 | | 150.000 | 6990 | | 800.000 |
| 1050 | | 300.000 | 6310 | | 350.000 |
| 1080 | | 180.000 | 6010 | | 700.000 |
| 1010 | | 250.000 | 6970 | | 150.000 |
| 2810 | | 400.000 | | II. bo‘lim jami | |
| 1060 | | 150.000 | Asosiy vositalar eskirishi | | |
| 2910 | | 200.000 | | | |
| 5110 | | 950.000 | 0220 | | 500.000 |
| 5010 | | 50.000 | 0230 | | 250.000 |
| 5510 | | 320.000 | 0260 | | 850.000 |
| 4220 | | 20.000 | | | |
| 4010 | | 500.000 | | | |
| 4890 | | 250.000 | | | |
| 4310 | | 300.000 | | | |
| 9810 | | 350.000 | | | |
| | II. Bo‘lim jami | | | Jami eskirish | |
| | Balans | | | Balans | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |

**2 - jadval.**

"G'alla - Alteg" OAJ ning 200_ yil fevral' oyida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish jurnali

| Xo'jalik muomalalarini qisqacha mazmuni | Summa | Provodka | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Ishlab chiqarishdan omborga tayyor mahsulot haqiqiy tannarxda kirimga olindi | 120.000 | | |
| 2. Olmaliq qurilish materiallari zavodidan qurilish materiallari olindi, lekin puli to'lanmadi. | 170.000 | | |
| 3. Hisob-kitob schyotiga sotish uchun jo'natilgan mahsulotlar summasi xaridorlardan olindi | 320.000 | | |
| 4. Byudjetga soliqlar summasi hisob-kitob schyotidan o'tkazib berildi | 280.000 | | |
| 5. Ish haqi berish uchun hisob-kitob schyotidan kassaga pul olindi | 230.000 | | |
| 6. Kassadan ish haqi berildi | 220.000 | | |
| 7. Bankdan qisqa muddatli kredit olinib, mol yuboruvchilarga o'tkazib berildi | 260.000 | | |
| 8. Boshqa debitorlardan qarz undirilib, hisob-kitob schyotiga o'tkazildi | 240.000 | | |
| 9. Asosiy ishlab chiqarishda ishlagan ishchilarga ish haqi hisoblandi | 270.000 | | |
| 10. Ishchilarning ish haqidan budjetga daromad solig'i ushlandi | 350.000 | | |
| 11. Asosiy ishlab chiqarishga qurilish materiallari sarflandi | 200.000 | | |
| 12. Foydalanilmagan akkreditivlarning bir qismi hisob-kitob schyotiga o'tkazildi | 170.000 | | |
| 13. Hisobdor shaxslarga berilgan bo'nak summasining foydalanilmay qolgan qismi kassaga topshirildi | 150.000 | | |
| 14. Kassadan dividend summasi to'landi | 20.000 | | |
| 15. Hisob-kitob schyotidan qisqa muddatli kredit summasi qaytarildi. | 210.000 | | |

## Topshiriqni bajarish uchun metodik ko'rsatmalar

I-jadval (balans)da keltirilgan schyotlarning nomlari turlili-gicha yozilib, jamlari chiqarilsin

2-jadvalda keltirilgan I5 ta xo‘jalik muomalalariga provodkalar berilib, 3 va 4-xonalarda debetlanuvchi va kreditlanuvchi schyotlarni nomerlari ko‘rsatilsin.

I-jadvalda (balans)da keltirilgan barcha aktiv va passiv schyotlar bo‘yicha daftarda schyotlar (samolyot) ochilib ularga dastlabki qoldiqlari balansdan ko‘chirib yozilsin.

Ochilgan schyotlarga I5 ta xo‘jalik muomalalarining summalari tarqatilib, oborotlari (aylanmalari) va oxirgi saldolari chiqarilsin hamda oborot (aylanma) vedomosti tuzilsin.

## 7 - mashg‘ulot

### Mavzu: Schyotlar va ikkiyoqlamali yozuv - sintetik va analitik hisob

**1 - jadval.**

“G‘alla - Alteg” OAJ da 200_ - yil mart oyida quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan.

| Xo‘jalik muomalalarining qisqacha mazmuni | Summa | Provodka | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Olingan qurilish materiallari uchun mol yuboruvchilarga hisob-kitob schyotidan pul o‘tkazib berildi. | 90.000 | | |
| 2. Turli xarajatlar uchun hisob-kitob schyotidan kassaga pul olib kelindi. | 200.000 | | |
| 3. Kassadan quyidagi xodimlarga xizmat safari sarfi uchun pul berildi: | | | |
| I) A.A.Ashurovga | 12000 | | |
| II) B.B.Begimovga | 18000 | | |
| JAMI - | 30.000 | | |
| 4. Mol yuboruvchilardan quyidagi materiallar olinib omborga qabul qilindi, lekin puli to‘lanmadi. | | | |
| a) 20 m/m po‘lat; | 250.000 | | |
| b) 25 m/m armatura; | 450.000 | | |
| c) 15 m/m sim. | 200.000 | | |
| JAMI - | 900.000 | | |
| 5. Asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarga ish haqi hisoblandi | | | |
| “A” mahsuloti bo‘yicha | 200.000 | | |
| “B” mahsuloti bo‘yicha | 300.000 | | |
| JAMI | 500.000 | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6. Ishchilarning ish haqlariga nisbatan belgilangan miqdorda ijtimoiy sug'urta ajratildi:<br>"A" mahsuloti bo'yicha<br>"B" mahsuloti bo'yicha | <br><br>50.000<br>75.000 | | |
| JAMI | 125.000 | | |
| 7. Ishchilarning ish haqlaridan budjetga daromad solig'i ushlandi<br>8. Ombordan asosiy ishlab chiqarishdagi "A" mahsuloti uchun quyidagi materiallar sarflandi:<br>a) 20 m/m po'lat<br>b) 25 m/m armatura<br>c) 15 m/m sim | <br>100.000<br><br><br>180.000<br>240.000<br>130.000 | | |
| JAMI | 550.000 | | |
| 9. Hisobdor shaxslar xizmat safaridan qaytgach avans (bo'nak) hisobotini topshirdi:<br>a) Ashurov "A" mahsulotini targ'ibot qilish bo'yicha safarda bo'lib, 11.000 so'm sarflaganligi hujjatlar bilan asoslangan<br>b) Begimov "B" mahsulotini targ'ibot qilish bo'yicha safarda bo'lib, 20.000 so'm sarflaganligi hujjatlar bilan asoslangan | <br><br><br>11.000<br><br>20.000 | | |
| 10. Safardan qaytgach Ashurov sarflanmay qolgan summani kassaga topshirdi<br>11. Safardan qaytgach Begimovga ortiqcha sarflangan summa kassadan to'landi<br>12. Hisob-kitob schyotidan quyidagi maqsadlar uchun pul o'tkazib berildi:<br>a) budjetga daromad solig'i<br>b) ijtimoiy sug'urta organiga | <br>5.000<br><br>2.000<br><br><br>100.000<br>125.000 | | |
| JAMI | 225.000 | | |
| 13. Ombordan asosiy ishlab chiqarishdagi "B" mahsuloti uchun quyidagi materiallar sarflandi:<br>a) 20 m/m po'lat<br>b) 25 m/m armatura<br>c) 15 m/m sim | <br><br>100.000<br>210.000<br>115.000 | | |
| JAMI | 425.000 | | |
| 14. Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdan omborga haqiqiy tannarxda qabul qilindi:<br>"A" mahsuloti<br>"B" mahsuloti | <br><br>550.000<br>380.000 | | |
| JAMI | 930.000 | | |
| 15. Xarid qilingan stanoklar foydalanishga topshirildi<br>16. Hisob-kitob schyotidan bank krediti to'landi | 850.000<br>400.000 | | |

## Topshiriqni bajarish uchun metodik ko‘rsatma

1. 1-jadvalda keltirilgan xo‘jalik muomalalariga provodkalar berilsin.
2. Oldingi 6-mashg‘ulot bo‘yicha tuzilgan oborot (aylanma) vedomostning oxirgi saldosida keltirilgan barcha schyotlar uchun (samolyotlar) schyotlar maketi ochilib, ularning dastlabki saldolari yozilsin.
3. Barcha xo‘jalik muomalalarining provodkalari ochilgan schyotlar maketiga tarqatilib, oborotlari va oxirgi saldolari chiqarilsin.
4. I0I0 “Xom ashyo va materiallar”, 4220 “Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar” va 20I0 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotlari bo‘yicha analitik schyotlar ochilsin.

Quyida analitik hisob yuritish uchun ma’lumotlar keltiriladi:

I0I0 “Xomashyo va materiallar”ning ombordagi oy boshiga qolgan qoldig‘i

| | | |
|---|---|---|
| a) 20 m/m po‘lat | – | 90.000 sim |
| b) 25 m/m armatura | – | 60.000 sim |
| c) I5 m/m sim | – | I00.000 sim |
| JAMI | – | 250.000 sim |

4220 “Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar” ning oy boshiga qoldig‘i

a) Ashurov A.A – qaytarib topshirmagan summa – 5000 so‘m
b) Begimov B.B – bo‘yicha qoldiq bo‘lmagan

20I0 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining
“A” mahsuloti bo‘yicha oy boshiga qoldiq – I50.000 so‘m
“B” mahsuloti bo‘yicha oy boshiga qoldiq – 350.000 so‘m

5. Sintetik va analitik schyotlari bo‘yicha oborot (aylanma) vedomostlari tuzilsin

**Mavzu: Schyotlar va ikkiyoqlamali yozuv bo‘yicha test savollari**

1. Quyidagilar hisobga oladigan schyotlar aktiv schyotlariga kiradi:
a) mulklarni; b) majburiyatlarni; c) hisoblashishlarni.

2. Quyidagilarni hisobga oladigan schyotlar passiv schyotlarga kiradi:
a) mulklarni; b) majburiyatlarni; c) hisoblashishlarni.

3. Sintetik schyotlar nimaga xizmat qiladi?
a) hisob obyektini maydalab ta’riflashga;
b) hisob obyektini umumiy ta’riflashga.

4. Analitik schyotlar nimaga xizmat qiladi?
a) hisob obyektini birma-bir ta’riflashga;
b) hisob obyektini umumiy ta’riflashga.

5. Qachon aktiv schyotning saldosi nolga teng bo‘ladi?
a) oy davomida oboroti bo‘lmasa;
b) debet oboroti kredit oborotiga teng bo‘lsa;
c) boshlang‘ich saldo plyus debet oboroti, kredit oborotiga teng bo‘lsa.

6. Qachon passiv schyotning saldosi nolga teng bo‘ladi?
a) oy davomida oboroti bo‘lmasa;
b) debet oboroti kredit oborotiga teng bo‘lsa;
c) kredit boshlang‘ich saldo plyus kredit oboroti debet oborotiga teng bo‘lsa.

7. Sintetik schyotlar bo‘yicha oborot vedomosti quyidagi maqsadda tayinlangan:
a) schyotlar korrespondensiyasini to‘g‘riligini tekshirish uchun;
b) analitik hisobning to‘g‘riligini bilish uchun;
c) sintetik schyotlarni to‘liqligini tekshirish uchun;
d) schyotlarning jamini chiqarish uchun.

8. Analitik schyotlar bo‘yicha qanday vedomost tuziladi?
a) shaxmatli, saldoli;
b) kontokorrentli, saldoli;
c) son-summa va tovar-material.

9. Sintetik schyotlar bo‘yicha oborot vedomostining jami teng bo‘lmasa, nimani bildiradi?
a) dastlabki saldo noto‘g‘ri ko‘chirib yozilgan;
b) ikkiyoqlamali yozuv prinsipi buzilgan;
c) oxirgi saldo noto‘g‘ri hisoblab topilgan.

10. Schyotlar balansga nisbatan bo‘ladi:
a) pul mablag‘lari, hisoblashishlar;
b) aktiv va passiv;
c) sintetik va analitik;
d) hisoblashish.

11. Ikkiyoqlamali yozuv – bu operasiyalarni quyidagicha aks ettirish:
a) schyotning debeti bo‘yicha;
b) ikkita schyot bo‘yicha;
c) ikkita dastlabki hujjatlarda;
d) balansda.

12. Murakkab korrespondensiya – bu operasiyalarni quyidagicha aks ettirish:
a) ikkita schyot bo‘yicha;
b) bir schyotning debeti va ikkita schyotning krediti bo‘yicha;
c) ikkita schyotning debeti;
d) ikkita schyotning krediti.

13. Joriy buxgalteriya hisobi ma’lumotlari umumlashtiriladi:
a) oborot vedomostida;
b) saldo vedomostida;
c) sintetik schyotlarda;
d) analitik schyotlarda.

**8 - mashg‘ulot**

## Mavzu: Schyotlar va ikkiyoqlamali yozuv – schyotlar tasnifi

Buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan schyotlar mohiyati, vazifalari va tayinlanishini chuqurroq o‘rganish maqsadida ular tasniflanadi.

21 – BXMS da keltirilgan barcha balansli schyotlarni tuzilishi va tayinlanishi bo‘yicha tasnif qiling. Uning uchun schyotlarning barchasining nomerlarini quyidagi guruhlar bo‘yicha jadvallarda aks ettiring.

**1 - jadval.**

Asosiy schyotlar

| Mulkiy schyotlar | Pul mablag‘-larini hisobga oladigan schyotlar | Fondlarni hisobga oladigan schyotlar | Majburiyatlarni hisobga oladigan schyotlar | Olinadigan schyotlarni hisobga oladigan schyotlar |
|---|---|---|---|---|
| **Ularga quyidagi schyotlar kiradi.** | | | | |
| **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** |

**2 - jadval.**

| Yig‘ib taqsimlovchi schyotlar | Tartibga soluvchi schyotlar | Кalkulyasiya schyotlari | Taqqoslovchi schyotlar | Tranzit schyotlar |
|---|---|---|---|---|
| **Ularga quyidagilar kiradi.** | | | | |
| **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** | **Sch. №**<br>**Sch. №**<br>**Sch. №** |

## Mavzu: Schyotlar va ikkiyoqlamali yozuv - schyotlarni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasnifi

21 - BXMSda keltirilgan barcha schyotlarni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha quyidagi jadvalga joylashtiring.

| Schyotlar guruhi | Guruhlar ichidagi schyotlar | Schyotlar№ | Schyotlarning nomi |
|---|---|---|---|
| **Ishlab chiqarish** | **Asosiy ishlab chiqarish fondlari** | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | **Кapital qo‘yilmalar va ta’mirlash** | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| **Taqsimlash** | **Mehnatga haq to‘lash** | | |
| | **Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha hisoblash** | | |
| | **Foyda va zarar** | | |
| | **Mablag‘larni taqsimlash** | | |
| | **Fondlar** | | |
| **Muomala** | **Ta’minot jarayoni** | | |
| | **Sotish jarayoni** | | |
| | **Pul mablag‘lari va hisoblashish-lar** | | |
| | **Кredit va qarzlar** | | |
| **Iste’mol** | **Ishlab chiqarish iste’moli** | | |
| | **Asosiy ishlab chiqarishsiz fondlar** | | |
| | **Noishlab chiqa-rish sferadagi sarf-xarajatlar** | | |
| | **Ijtimoiy rivojlanish xarajatlari** | | |

## Mavzu: Schyotlar rejasi va tasnifi bo‘yicha test savollari

To‘g‘ri javobni ko‘rsating.

**1. Nima uchun schyotlar** tasniflanadi?

a) ishlash qulay bo‘lishi uchun;

b) xo‘jalik faoliyatini tasnif qilish uchun;

c) xo‘jalik faoliyatini buxgalteriya taxlili, zaruriy axborotlarni aniqlash va olish uchun;

d) nazorat tizimini tashkil etish uchun.

**2. Schyotlarni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha guruhlashdan maqsad nima?**

a) xo‘jalik jarayonlarini aks ettirishni yagona prinsipini ta’minlash;

b) alohida tashkilotning xo‘jalik faoliyatini aks ettirish uchun zarur bo‘lgan schyotlar ro‘yxati va ularning bir xillik guruhlarini aniqlash;

c) analitik hisob tizimini tuzish uchun;

d) yig‘ma axborotlarni olish uchun.

**3. Iqtisodiy mazmunlari bo‘yicha tasniflanganda schyotlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:**

a) mablag‘lar schyotlari, mablag‘lar manbalarini tashkil etuvchi schyotlar, operasion schyotlar;

b) aktiv schyotlar, aktivlarni tashkil etuvchi manbalar schyotlari, xo‘jalik jarayonlari va ularning natijalarini hisobga oluvchi schyotlar;

c) tartibga soluvchi schyotlar, asosiy schyotlar, xo‘jalik jarayoni va ularning natijalarini hisobga oluvchi schyotlar;

d) fondlar schyotlari, hisoblashishlar schyotlari, mablag‘lar schyotlari.

**4. Schyotlarni strukturasi bo‘yicha tasniflash nima uchun zarur?**

a) schyotlarning oborotlari va saldo ma’nosini tushunish uchun;

b) schyot bo‘yicha obyektlar hisobi tartibini aniqlash uchun;

c) ishlash qulay bo‘lishi uchun;

d) nazorat tizimini tashkil etish uchun.

**5. Strukturasi bo‘yicha tasniflanganda barcha schyotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:**

a) asosiy, operasion, taqsimlovchi, moliyaviy natijalar;

b) asosiy, tartibga soluvchi, operasion, taqsimlovchi moliyaviy natijalar, balansdan tashqari;

c) asosiy, tartibga soluvchi, kalkulyasion, yig‘uvchi – tarqatuvchi, balansdan tashqari, taqsimlovchi.

**6. Balansdan tashqari schyotlar nima?**

a) hozirgi vaqtda xo‘jalik organlarining balansiga ta’sir qilmaydigan voqea va operasiyalarni aks ettirish, shuningdek, mas’uliyatli saqlashga qaytadan ishlovga, komissiyaga, ijaraga qabul qilingan mablag‘larni aks ettirish uchun;

b) mazkur tashkilotga tegishli bo‘lmagan mablag‘larni hisobga olish uchun;

c) ijaraga olingan mablag‘larni hisobga olish uchun;

d) obyektlarni ikki xil bahoda hisobga olish uchun.

**7. Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi – bu:**

a) hisobda qo‘llaniladigan barcha analitik schyotlar ro‘yxati;

b) sintetik va analitik schyotlar yig‘indisi;

c) schyotlar ro‘yxati;

d) buxgalteriya hisobining sintetik ko‘rsatkichlarini umumiy nomenklaturasini klassifikatori.

**8. Schyotlar rejasida schyotlar bo‘limlarga qaysi prinsipda guruhlangan?**

a) strukturasi bo‘yicha;

b) iqtisodiy mazmuni bo‘yicha;

c) aktiv, passiv tuzilishi bo‘yicha.

**9. Tranzit schyotlar qanday xarakterga ega ?**

a) mulkiy;

b) yildan-yilga o‘tadigan;

c) hisobot davri ichida yopilib ketadigan;

d) asosiy schyotlar tarkibiga kiradi.

**10. Tranzit schyotlar qaysi schyotlarga mansub?**

a) faqat aktiv schyotlarga;

b) faqat passiv schyotlarga;

c) kontraktiv schyotlarga;

d) kontr passiv schyotlarga;

e) aktiv schyotlar va passiv schyotlar.

## 9 – mashg‘ulot.

### Mavzu: Asosiy xo‘jalik jarayonlarining hisobi

Ta’minot jarayoni hisobi – “G‘alla - Alteg” ochiq aksionerlik jamiyati (OAJ) da 200_ yil avgust oyida quyidagi muomalalar sodir bo‘lgan.

**1-jadval**

| Muomalalarning qisqacha mazmuni | Summa | Provodka | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| **1. Fermalardan omborga quyidagi turdagi g‘alla xom ashyo sotib olindi, lekin puli berilmadi:**<br>**a) bug‘doy – 62,5 s**<br>**b) arpa – 50 s**<br>**c) makkajo‘xori – 38 s** | <br><br>**500.000**<br>**300.000**<br>**150.000** | | |
| **JAMI** | **950.000** | | |
| **2. Fermalarga oldindan to‘langan bo‘nak (avans) summasi zachyot qilindi (surishildi)**<br>**3. Fermalardan g‘allalarni yuk avtotransportida tashib kelish uchun transport tashkilotiga pul o‘tkazib berish hisoblandi**<br>**4. Chinobod neftebazasidan quyidagi turdagi neft mahsulotlari omborga qabul qilindi, lekin puli to‘lanmadi:**<br>**a) benzin AN-76 – 13 s**<br>**b) dizel yoqilg‘isi – 10 s** | **300.000**<br><br>**150.000**<br><br><br><br><br>**650.000**<br>**350.000** | | |
| **5. Yoqilg‘ilarni tashib kelish uchun transport tashkilotiga pul o‘tkazib berish hisoblandi** | **120.000** | | |
| **6. O‘rnatiladigan asbob-uskunalar montaj qilish uchun topshirildi**<br>**7. Mol yuboruvchilarga sotilgan mahsulot uchun pul hisob-kitob schyotiga kelib tushdi**<br>**8. Bankdan qisqa muddatli kredit olinib quyidagi maqsadlar uchun yo‘naltirildi:**<br>**a) fermer xo‘jaliklariga**<br>**b) transport tashkilotlariga** | **800.000**<br><br>**180.000**<br><br><br>**650.000**<br>**270.000** | | |
| **JAMI** | **920.000** | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **9. Кassadan ishchilarga ish haqi berildi**<br>**10. Hisob-kitob schyotidan kassaga naqd pul olib kelindi**<br>**11. Hisobdor shaxslarning ortiqcha sarflagan safar xarajatlari kassadan to'landi**<br>**12. Inventarizasiya natijasida idishlar tarkibida noto'g'ri hisobga olingan flyaga va bidonlar inventar va xo'jalik jihozlariga o'tkazildi**<br>**13. Кassadagi naqd pul hisob-kitob schyotiga topshirildi**<br>**14. Sotib olingan g'alla turlarini haqiqiy tannarxi aniqlansin (provodka berilmaydi)**<br>**15. Sotib olingan neft mahsulotlarini haqiqiy tannarxi aniqlansin (provodka berilmaydi)** | **120.000**<br>**100.000**<br>**150.000**<br>**60.000**<br>**30.000** | | |

## Topshiriqni bajarish uchun metodik ko'rsatma:

1. 1-jadvalda keltirilgan xo'jalik muomalalariga provodkalar berilsin.
2. Schyotlar ochilib 7-mashg'ulotning oborot vedomostida keltirilgan schyotlarning oxirgi qoldiqlari dastlabki saldo deb ko'chirib yozilsin va yuqorida keltirilgan provodkalar tarqatilib, oborotlari va oxirgi qoldiqlari chiqarilsin.
3. Ochilgan schyotlar ma'lumotlariga asosan, oborot vedomosti tuzilsin.
4. 14 va 15-operasiyalar bo'yicha g'alla va neft mahsulotlarining haqiqiy tannarxi aniqlansin. Buning uchun quyidagi 2 va 3-jadvallar tuzilsin.

**2 - jadval**

| G'alla turlari | Sotib olindi | | G'alla-ning xarid narxi, so'm | Transport xarajatla-rini taq-simlanishi, so'm | G'allaning haqiqiy tannarxi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Miq-dori, s | % | | | Jami, so'm | Is, so'm |
| Bug'doy<br>Arpa<br>Makkajo'xori | | | | | | |
| JAMI | | | | 150.000 | | |

**3 - jadval.**

| Yonilg‘i | Sotib olindi | | Yonilg‘i-ning xarid narxi, so‘m | Transport xa-rajatlarini taqsimlanishi, so‘m | Yonilg‘ining haqiqiy tannarxi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Miqdori, s | % | | | Jami, so‘m | Is, so‘m |
| Benzin AN-76<br>Dizel yonilg‘i | | | | | | |
| JAMI | | | | 120.000 | | |

## 10 - mashg‘ulot.

### Mavzu: Ta’minot jarayonining hisobi

Quyida keltirilgan ma’lumotlarga asosan:

a) Buxgalteriya hisobi schyotlarini oching.

b) Provodka berib, schyotlarda aks ettiring. I0I0-schyoti bo‘yicha materiallarning haqiqiy tannarxini hisoblang.

Masalani echish uchun ma’lumotlar.

1. “G‘alla - Alteg” OAJ ning 200_ - yil I – iyulga sintetik schyotlar bo‘yicha qoldig‘i

| Schyot-lar № | Schyotlarning nomi | Summa,so‘m | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1010 | Materiallar (haqiqiy tannarxi) | 10500 | - |
| 5010 | Kassa | 280 | - |
| 5110 | Hisob-kitob schyoti | 26200 | - |
| 6010 | Mol yuboruvchi va pudratchilar bilan | - | 14100 |
| 4220 | hisoblashish | 160 | - |
| 6810 | Hisobdor shaxslarga berilgan avans | - | 13000 |
| 2010 | Bankdan olingan qisqa muddatli ssuda | 28400 | - |
| 6710 | Asosiy ishlab chiqarish | | |
| | Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan | - | 3700 |
| | hisoblashish | - | 1360 |
| 6520 | Ijtimoiy organlar bilan hisoblashishlar | - | 30694 |
| 8310 | Ustav kapitali | - | 4200 |
| 6410 | Soliqlar bo‘yicha budjet bilan hisob- | 13684 | |
| 2810 | lashishlar | 630 | |
| 4010 | Tayyor mahsulot | - | 12800 |
| 8710 | Xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot | | |
| | Taqsimlanmagan foyda | | |
| | JAMI | | |

Izoh: Bug‘doyning qoldig‘i:

a) yagona hisob bahosi – I0.000 so‘m;

b) Bug‘doyning haqiqiy tannarxini yagona hisob bahosidan og‘ishishi +500 so‘m.

2. 200_ - yil iyul oyida material va xomashyolarni sotib olish bo‘yicha quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan.

| Xo‘jalik muomalalarining qisqacha mazmuni | Summa | Provodka | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1. "G‘oliba" fermer xo‘jaligidan bug‘doy olindi. Yagona hisob bahosi. | 4860 | | |
| 2. Bug‘doyni tashib kelgan transport tashkilotiga pul o‘tkazib berish hisoblandi. | 240 | | |
| 3. Hisobdor shaxs tomonidan bug‘doyni yuklash-tushirish, xarajatlari to‘landi. | 40 | | |
| 4. "G‘oliba" fermer xo‘jaligiga topshirgan bug‘doyi uchun hisob-kitob schyotidan pul to‘landi. | 4860 | | |
| 5. G‘allani sotib olishni tashkil qiluvchi dallol tashkilotga pul o‘tkazib berish hisoblandi. | 600 | | |
| 6. Dallol tashkilotga komission haqi hisob-kitob schyotidan o‘tkazib berildi. | 600 | | |
| 7. Iyul oyida tegirmonga bug‘doy jo‘natildi. Yagona hisob bahosida. | 7300 | | |
| 8. Bug‘doyning hisob bahosidan og‘ishishi hisobdan chiqarildi. | ? | | |

3. Masalani echishda quyidagi shakldagi jadvaldan foydalaning.

| Tartib № | Ko‘rsatkichlar | Bug‘doy-ning hisob bahosi bo‘yicha qiymati, so‘m | Haqiqiy tannarxi, so‘m | Haqiqiy tannarxini hisob bahosidan og‘ishishi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Summa, so‘m | % |
| 1. | Bug‘doyning oy boshiga qoldig‘i | | | | |
| 2. | Iyul oyida sotib olingan bug‘doy | | | | |
| 3. | Qoldig‘i bilan jami kirim | | | | |
| 4. | Iyul oyida tegir-monga jo‘natilgan bug‘doy, yagona hisob bahosida | | | | |
| 5. | Oy oxiriga qolgan bug‘doy | | | | |

## 11 - mashg‘ulot

### Mavzu: Ishlab chiqarish jarayonining hisobi

**“G‘alla - Alteg” OAJ da 200_ - yil avgust oyida quyidagi muomalalar sodir bo‘lgan.**

| Xo‘jalik muomalalarining qisqacha mazmuni | Summa | Provodka | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Asosiy ishlab chiqarishga bug‘doy sarflandi:<br>a) 1-navli un ishlab chiqarish uchun 2-tegirmonga yagona hisob bahosida<br>b) yorma ishlab chiqarish uchun 3-tegirmonga yagona hisob bahosida<br>2. Bug‘doyning yagona hisob bahosidan og‘ishishi hisobdan chiqarildi (ma’lumotni 10-mashg‘ulot echimidan oling):<br>a) 1- navli un ishlab chiqarish uchun 2-tegirmonga<br>b) yorma ishlab chiqarish uchun 3-tegirmonga | <br><br>3800<br><br>2400<br><br><br>?<br>? | | |
| JAMI | | | |
| 3. Tegirmonlarda ishlayotgan ishchilarga ish haqi hisoblandi:<br>a) 2-tegirmon bo‘yicha<br>b) 3-tegirmon bo‘yicha | <br>128.000<br>92.000 | | |
| JAMI | 220.000 | | |
| 4. Ishlab chiqarishni tashkil etadigan sex xodimlariga ish haqi hisoblandi. | 52.000 | | |
| 5. Xodimlarning ish haqlariga nisbatan ma’lum miqdorda ijtimoiy sug‘urtaga ajratma qilindi:<br>a) 2-tegirmon bo‘yicha<br>b) 3-tegirmon bo‘yicha<br>c) sex xodimlari bo‘yicha | <br><br>32.000<br>23.000<br>13.000 | | |
| JAMI | 68.000 | | |
| 6. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblandi:<br>a) 2-tegirmon stanoklariga<br>b) 3-tegirmon stanoklariga<br>c) umumsex binolariga | <br>60.000<br>40.000<br>25.000 | | |
| JAMI | 125.000 | | |
| 7. Sarflangan elektroenergiya uchun rayon elektrotarmoq tashkilotiga pul o‘tkazib berish hisoblandi:<br>a) 2-tegirmon bo‘yicha<br>b) 3-tegirmon bo‘yicha<br>c) umumsex ehtiyoji bo‘yicha | <br><br>32.000<br>28.000<br>15.000 | | |
| JAMI | 75.000 | | |
| 8. Oy oxirida umumsex xarajatlari 2 va 3-tegirmonlar o‘rtasida asosiy ishchilarning ish haqlariga nisbatan taqsimlandi:<br>a) 2-tegirmonga o‘tkazildi | <br><br><br>? | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **b) 3-tegirmonga o'tkazildi**<br>**9. Ishlab chiqarishdan omborga reja tannarxida tayyor mahsulotlar qabul qilindi:**<br>**a) 1-navli un 4832 kg 71-50 so'mdan**<br>**b) yorma 5923 kg 38-00 so'mdan**<br>**10. Mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlansin (provodka berilmaydi):**<br>**11. Mahsulotlarning haqiqiy tannarxi bilan reja tannarxi orasidagi farqi aniqlanib provodka berilsin:**<br>**a) 2-navli un bo'yicha**<br>**b) yorma bo'yicha** | **?**<br><br><br>**345488**<br>**225074**<br><br><br><br><br><br>**?**<br>**?** | | |

Vazifa:
1). Muomalalarga provodkalar berilsin.
2). 2, 8 va 11 – muomalalarning summasi topilsin.
3). 8-muomalaning summasini topish uchun quyidagi shaklda umumishlab chiqarish (sex) xarajatlarini taqsimlash vedomosti tuzilsin

Umumishlab chiqarish (sex) xarajatlarini taqsimlash vedomosti

| **Mahsulot turlari** | **Asosiy ish haqi** | | **sex xarajatlari** | **Debetlanuvchi schyot** |
|---|---|---|---|---|
| | **So'm** | **%** | | |
| **1-navli un**<br>**Yorma** | | | | |
| **JAMI** | | **100 %** | | |

4). 10-mumomalaning summasini topish uchun quyidagi vedomostni tuzing. Bunda shuni inobatga oling: 2010-schyotining dastlabki qoldig'i:
a) 1-navli bug'doy bo'yicha – 2I000 so'm
b) yorma bo'yicha – I5377

Mahsulot tannarxini aniqlash vedomosti

| **Xarajat moddalari** | **1-navli un** | **Yorma** |
|---|---|---|
| **1. Tugallanmagan ishlab chiqarish**<br>**2. Xomashyo (bug'doy)**<br>**3. Ish haqi**<br>**4. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma**<br>**5. Amortizasiya**<br>**6. Элektroenergiya**<br>**7. Umumishlab chiqarish (sex) xarajati.** | **21000** | **15377** |
| **JAMI** | | |
| **8. Olingan mahsulot, s**<br>**9. 1 s mahsulotning haqiqiy tannarxi (so'm)** | | |

**12-mashg‘ulot**

## Mavzu: Ishlab chiqarish jarayonining hisobi

Quyidagi ma’lumotlarga asosan:

1) 20I0 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debetiga yozilgan har bir muomalaning mazmunini daftarga yozing va schyotlarga tarqating

2) 20I0 - schyotining kreditiga yoziladigan summani aniqlang; bu schyot bo‘yicha kredit oboroti nimani bildirishini yozib ko‘rsating

20I0 – schyot “Asosiy ishlab chiqarish ”

DT

КТ

| | | |
|---|---|---|
| **Oy boshiga saldo** | **537000** | |
| **1) КТ 1010 “Materiallar”**<br>**2) КТ 2110 “Yarim tayyor mahsulot”**<br>**3) КТ 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar”**<br>**4) КТ 6520 “Maqsadli davlat jamgarmalariga to‘lovlar”**<br>**5) КТ 0230 “Mashina va asbob uskunalarning eskirishi”**<br>**6) КТ 8910 “Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi”**<br>**7) КТ 2510 “Umumishlab chiqarish xarajatlari”**<br>**8) КТ 6990 “Boshqa majburiyatlar”** | **820.000**<br>**260.000**<br>**1.415.000**<br>**538.000**<br>**62.000**<br>**78.000**<br>**915.000** | |
| **Yanvar oyi oboroti** | **4.873.000** | |
| **Oy oxiriga saldo** | **410.000** | |

## 13 - mashg‘ulot.

### Mavzu: Mahsulot sotish jarayonining hisobi

"G‘alla - Alteg" OAJ da 200_ - yil sentyabr oyida quyidagi muomalalar sodir bo‘lgan.

| Muomalalarning qisqacha mazmuni | Summa | Provodka | |
|---|---|---|---|
| | | DT | KT |
| 1) Xaridorlardan sotiladigan mahsulot uchun bo‘nak summasi olindi:<br>a) "Shirin kulcha" firmasidan<br>b) "Doston" fermer xo‘jaligidan | <br><br>63.000<br>41.000 | | |
